

## INSON VA HAYVONLAR USTIDA TAJRIBA O'TKAZISH

*Muhammadiyaheva Kamola Dilshod qizi*  
*Toshkent Davlat Stomatologiya Institutining*  
*Davolash Ishi Fakulteti Talabasi*

**Annotatsiya** - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yili 6-fevral kuni Pepushtlikni sun'iy urug'lantirish orqali oldini olishga qonunan ruxsat etildi. O'zbekiston musulmonlar idorasi ushbu Fatvo asosida sun'iy urug'lantirishga ruxsat berildi:

1. Sun'iy urug'lantrish amaliyotida o'ta zarur holatda va faqat o'rtalarida shar'iy nikohlari bo'lgan er-xotinlar o'rtasida
2. Sun'iy urug'lantrish amaliyoti uchun o'rtalarida shar'iy nikoh lari bo'lgan erkak va ayolning urug'larini saqlashda begona shaxslarniki bilan aralashib ketmasligi uchun barcha ehtiyot larinearini ko'rish va albatta, uni ishonchliq tabib amalga oshirishi shart bo'lgandagina ushbu amaliyotni o'tkazishga musulmonlar idorasi ruxsat berildi.

**KIRISH**

Sun'iy urug'lantirish nima? U nimaga kerak?

Qadimdan olimlar bepushtlikka davo axtarib, farzand ko'rish orzusida yurgan erkak va ayollarning bunday baxtga muyassar etishi ustida bosh qotirib kelganlar. Buyuk tarixchi, faylasuf, Ibn sino, Farobiy va boshqalar o'z asarlarini insonni sun'iy yo'l bilan vujudga kelishiga ishora qilib ketishgan. Ibn Xaldun o'zining asarida "Al-Muqadimma" asarida qadimgi kimyo fani haqida so'z yuritib shunday deydi "Ibn Sino, Farobiy, aytgan gaplariga suyangan holda tabiiy muhitda maniydan insonni vujudga keltrish mumkin". Tabiiy muhit deganda Ibn Xaldun onaning qornini nazarda tutgan "Agar biz inson bachadondan yaralib, rivojlanishidagi barcha bosqichlar uchun zarur sharoitni yaratish imkoni borligiga ishonsak va buning ychun yetarli ilim bo'lsa, albatta insonning shu tarzda vujudga kelishi mumkin" Yigirmanchi asirning ikkinchi yarimida olimlar sun'iy urug'lantrishni dastlab hayvonlarda o'tkazishdi. Shotlandiyada Roslin instuti olimlari qo'yni sun'iy urug'lantrish orqali sog'lom qo'zichoq olishdi. Urug'langan tuxum hujayrani tuxum hujayra yadrosini olib tashlab donor hujayra yadrosiga tuxum hujayra kiritish orqali Dolli qo'zichog'ini olishdi. 70-yillarga kelib esa bu tajriba insonda sinab ko'rildi va nihoyat Angliyada 1978 yil 25-iyunda "probirka bolasi" deb nom olgan chaqoloq Luiza Braun chaqoloq dunyoga keldi. Luzianing ota-onasi bu amaliyotga qanday qilib ichki qo'rquvlarsiz rozi bo'ldi? Sababi bu oila 20 yil birga yashagan ammo ularning farzadnlari bo'lmaganligi sababli bu jarohlik amaliyotiga rozi bo'lishdi. Olamshumul kashfiyot yuzaga kelganini, butun dunyo ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusiga aylana boshladi. Buni

eshitgan rivojlangan davlatlarning olimlari jim turishmadi. 1986-yili Rasiyada sun'iy urug'lantrish orqali chaqaloq dunyoga keldi. Ammo, bu kashfiyot yuzaga kelgani Din fatvolari jim qarab turishmadi. Bunga juda qat'iy qoralashdi. Bu kashfiyotga birinchilardan bo'lib Saudiya Arabiston, Qohira, Jazoir va boshqa islom davlatlari bunga juda katta qarshilik qilishdi. Bu ular uchun Allohga bo'lgan shirk hisoblandi. Sun'iy urug'lantrish haqida juda ko'plab bahs va munozaralar kanferensiyalar bo'lib o'tdi. 1983-yili beshinchi yig'ilishida Quvayt davlatida bo'lib o'tdi, 1986-yili yettinchi yig'ilishi Ummon davlatida bo'lib o'tgan Islom konferensiyasida tashkilotning fiqihiy kengashidan rasman Fatvo olindi. Farzand ko'rish bahtiga bepushtligi sababli erisha olmayotgan oilalar faqat yuqoridagi shartlar asosida sun'iy urug'lantrish joiz deb topildi. Bu kashfiyot O'zbekistonda amaliy jihatdan qo'llashga olimlarimiz 2019- yili qonunan ruxsat noma olishdi.

Sun'iy urug'lantrish- tabiiy yo'l bilan farzand ko'ra ilish qobilyati buzilgan yoki ummuman yo'qolgan oilalarda o'tkaziladigan reproduktiv texnologiyalarning eng zamonaviy ko'rinishidir. Bu texnologiyaning asosida jisniy aloqadan foydalanmagan holda erkak spermatozoidlarini ayol reproduktiv a'zolariga yo'naltrish yoki joylash yotadi.

Eko-usulida tuxum hujayralarni urug'lantrish invitro sharoitida o'tkaziladi, ya'ni "probirkada" sun'iy urug'lantrish esaerkakdan olingan sperma suyuqligini bachadon bo'yniga yoki bachadon bo'shlig'iga joylashtiriladi. Ilk sun'iy urug'lantrish italiyan olimlar tomonidan 18 asr oxirlarida amalga oshirilgan, bunda ular itlarda tajriba o'tkazib ko'rishgan. Bu usul 50-60 yillarda keng tarqalib ketdi.

Sun'iy urug'lantrish shartlari: sun'iy urug'lantrish amaliyoti ovulatsiya davrigacha bo'lgan vaqtda o'tkaziladi. Bunda sun'iy urug'lantrish kutiliyotgan ovulatsiya jarayonidan bir sutka oldin, ovulatsiya vaqtida va tuxum hujayradan follikula chiqqan vaqtda bajariladi.

Sun'iy urug'lantrish quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- Vaginizm
- Bachadon bo'yni
- Erkak Kishida erektil disfunktsiyalar
- Bachadon bo'yni funksional deformatsiyasi
- Bachadondagi nuqsonlar
- Immunologik bepushtlik ( spermatozoidlarni nobud qiluvchi antitelolar ayol organizmi tomonidan ishlab chiqariladi)
- Gipoestrogeniya( bachadon bo'yni shillig'ining quyuqlashuvu, buning natijasida spermatozoidlarning bachadon bo'shlig'iga o'ta olmasligi)
- Idiopatik kasalliklar

- Azoospermiya
- Subfertil sperma
- Juftlarning birida OIV-infeksiyasi bo'lishi
- Rezus konflikt holatida ( dunyoga keladigan farzandda rezus mos kelmaslikning oldini olish maqsadida

Sun'iy urug'lantrish o'tkazishiga qarshi ko'rsatmalar

- Ayoldagi somatik, ruhiy kasalliklar va bu kasalliklarning homilador bo'lishiga to'sqinlik qilsa
- Bachadon rivojlanish nuqsonlari
- Tuxumdonlar kistasi va o'simtalar
- Har qanday yomon sifatli o'smalar
- O'tkir yoki surunkali infeksiyon kasalliklarning xuruj qilishi
- Follopiy naychalarning berkilishi
- Adenomizim og'ir darajasi
- Bachadon nayi bo'lmasligi yoki spayaklar

Sun'iy urug'lantrish uchun tayorgarlik almaliyotlari o'tkaziladi. Tayorgarlik bosqichlari mutaxassislar maslahati, instrumental va laborator tekshiruvlar hamda sperma qayta ishlovdan o'tkazilishdan iborat. Ko'rikdan o'tkazish 6 oydan oshmasligi kerak.

- Terapevt- surunkali kasalliklarni
- Ginekolog- ginekologik patologiyalarni
- Androlog-erkak kishi tomonidan o'zgarishlarni aniqlash
- Urolog- urologik tizimda kasalliklarni anqilash maqsadida
- Mammolog-ko'krak sut bezidagi muommolarni aniqlash
- Endokrinologik- endokrinologik o'zgarishlarni anqlash
- Kardiologik, onkologik va boshqa mutahassislar tekshruvidan o'tishi kerak bo'ladi

Sun'iy urug'lantrish qanday amalga oshadi? Har ikkala juft a'zolar belgilangan vaqtda shifoxonaga keladi. Erkak kishidan eyakulat olinadi va uni qayta ishlovdan o'tkaziladi, ayol esa tuxumdon Uzi tekshiruvdan o'tadi, bunda ovulatsiya jarayoni tasdiqlash kerak bo'ladi. Ayol ginekologik stolga yotqiziladi, biomaterial maxsus shpritsga olinadi, shprits to'mtoq moslama biriktriladi bachadon bo'yni urug'lantrilishi yoki plastic kateter ulanadi bachadon bo'shlig'iga urug'lantriladi. Qinga ko'zgu joylashtirilib sperma kiritilgandan so'ng servikal qopqoqcha joylashtiriladi, bu

qalpoqcha spermani chiqib ketmasligini ta'minlaydi Bemor ayol 45-60 daqiqa davomida gorizontol holatda yotadi va uylariga ketishga ruhsat beriladi.

Statiska malumotlariga qaraganda eng ko'p tug'ilgan bolalar soni 69 ta. Bu rekordni Rus ayoli Fyoder Vasilev 18-asrda. 1725-1765 yillarda qahramon onadan 16 marta egizak, 7 marta uch egizak, 4 marta to'rt egizak tug'ildi. 69 farzanddan ikkisi go'daklik davridayoq vafot etishgan. Bu rekord haligacha yangllanmadi.

Albatta tabiiy yo'l bilan farzandlik bo'lishlik hammaga ham nasib etavermaydi. Sun'iy yo'l bilan urug'lantrish yo'li topimaganiga qadar qanchadan-qancha oilalar ajrashib ketishgan. Farzandsizlik orqali oilalarning mahzunligi, ularning iztrobining chek-chegarasi yo'qdek tuyilgan go'yo. Olimlar bularning ilojisini topishdi.

Farzand bu bebaho ne'mat. Har bir oilani birlashtirib turuvchi mustahkam rishtadir. Farzdan oilaning mevasi va bahoridir. Inson xayotining mazmuni, nasil-nasabni davom ettiruvchi, oilaning mustahkam zanjiri. Yaxshi, solih farzand ota-onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetgazuvchi dilbandi. Bejizga farzandlar "Jannat rayhonlari" deb tavsiflanmagan. Ammo farzand odobli, yaxshi fazilatlar sohibi bo'lsagina oilaga quvonch olib keladi.

Oila qurish va solih va soliha farzandlar ko'rishni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak. Biroq farzadn deb ataluvchi ne'mat har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo buning iloji ham topildi. Ota-onaning vazifasi faqat farzandni dunyoga keltrishdan ibirat emas. Uning barkamol, aqilli, esli-hushli bo'lishi ham ota-onaning tarbiyasiga bog'liq. Ota-onalar bolaning tabiati, xulq-atvori shu oiladagi muhitga qarab shakillanishini sedan chiqarmasligi kerak. Ularning vazifasi xuddi tajribali, mehribon tabibning bemorga munosabatiga o'xshash bo'lishi darkor. Yetuk va barkamol farzandlar osmondan tushmaydi, balki ota-ona nazoratida oila ichida tarbiyalanib yetishadi. Bolalar tarbiyasiga yosh vaqtlarda beparvo bo'lmasligi kerak. Beparvolik natijasida bolaning yomon yo'llarga kirib ketishi mumkinligi kundek Ravshan. Sodda qilib aytganda bola oq qog'ozga oxshaydi. Ularga imkon qadar chiroyli ranglar bilan yozish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dunyoning gineslar rekordi kitobi.
2. Doctor pediator
3. O'zbekiston musulmonlar idorasi, raisi muftiy U. Alimovning Rasululloh(s.a.v)ning muborak vasiyatlari kitobining 2 qismi
4. Valeolog maslahatlari
5. Chet el adabiyotlari
6. Buyuk ishlar tarxi
7. Chet el online kutubxonasi